



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 204 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабиржанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	



ALOQA KORXONALARI XIZMAT FAOLIYATIDA DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING ILMIY BAHOLASH USULLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

Tursunova Mastura Taxirovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
katta o'qituvchi
E-mail: masturataxirovna1990@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada aloqa korxonalarida xizmatlarni diversifikatsiya qilish jarayonini baholashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Muallif tomonidan xizmatlar portfelining texnologik kengayishini baholash uchun TDI (Technological Diversity Index), xizmatlar eksportining ko'p tarmoqli bo'lish darajasini aniqlovchi HHI (Herfindahl–Hirschman Index), shuningdek, Cross-Referral ROI kabi ko'rsatkichlar tavsiya etiladi. Ular orqali xizmatlar spektrining iqtisodiy samaradorligi, foydalanuvchi ehtiyojlariga moslashuvi va infratuzilmaviy resurslarning qayta taqsimlanishi baholanadi. Tadqiqotda ushbu indekslar asosida milliy aloqa kompaniyalari uchun kompozit ko'rsatkichlar tizimi (KDSI) ishlab chiqish taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: aloqa korxonalari, xizmatlar diversifikatsiyasi, iqtisodiy samaradorlik, resursga asoslangan yondashuv, RDT nazariyasi, Tobin's q, raqamli transformatsiya, klasterlash, AI integratsiyasi, strategik hamkorlik, 2030 O'zbekiston strategiyasi.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of evaluating service diversification in telecommunications enterprises. The author proposes the use of metrics such as the Technological Diversity Index (TDI), the Herfindahl–Hirschman Index (HHI), and the Cross-Referral ROI to assess the economic effectiveness of the service portfolio, its adaptability to customer needs, and the redistribution of infrastructural resources. Based on the findings, the paper recommends developing a Composite Diversification Score Index (CDSI) tailored to national telecommunications companies.

Key words: telecommunications enterprises, service diversification, economic efficiency, resource-based approach, RDT theory, Tobin's q, digital transformation, clustering, AI integration, strategic partnership, Uzbekistan 2030 strategy.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и прикладные аспекты оценки процесса диверсификации услуг в телекоммуникационных предприятиях. Автором предлагается использование таких индексов, как TDI (Индекс технологического разнообразия), HHI (Индекс концентрации Герфиндала–Хиршмана) и Cross-Referral ROI для анализа экономической эффективности спектра предоставляемых услуг, их адаптации к потребностям клиентов и рационального перераспределения инфраструктурных ресурсов. На основе полученных данных предлагается разработка Композитной системы оценки диверсификации (КСОД) для национальных телекоммуникационных компаний.

Ключевые слова: телекоммуникационные предприятия, диверсификация услуг, экономическая эффективность, ресурсно-ориентированный подход, теория RDT, коэффициент Тобина, цифровая трансформация, кластеризация, интеграция ИИ, стратегическое партнёрство, стратегия Узбекистана–2030.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmatlar sektori strategik ustuvor yo'nalishga aylangan bo'lib, aloqa xizmatlarining jadal rivojlanishi xizmatlar spektrini kengaytirish — ya'ni diversifikatsiya qilish — orqali iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash imkonini bermogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida xizmatlar eksporti hajmini oshirish, raqamli infratuzilmanni kengaytirish va hududlararo tenglikni ta'minlash asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, xizmatlar diversifikatsiyasini nafaqat amalga oshirish, balki uni ilmiy usullar orqali baholash va boshqarish ham alohida ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda xizmatlar diversifikatsiyasi turli iqtisodiy kontekstlarda keng qamrovli tahlil qilingan. Douglas Miller (2006) tomonidan taklif etilgan Technological Diversity Index (TDI) kompaniya patent portfelining texnologik xilma-xilligini baholashga xizmat qiladi. Gnanon (2021) esa eksport turlarining konsentratsiyasini o'lchovchi Herfindahl–Hirschman Index (HHI) formulasi orqali xizmatlar sektoridagi diversifikatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni asoslab bergan. Harvard Business School tomonidan ishlab chiqilgan Cross-Referral ROI modeli esa yangi xizmatlar orqali mijozlarni jalb qilish samaradorligini tahlil etishda qo'llaniladi.

Bundan tashqari, MDH mamlakatlari olimlari — Mamatqulov, Nurmatova, Sattorov, Xo'jayeva va boshqalar — O'zbekistonda diversifikatsiyani logistik infratuzilma, foydalanuvchi tajribasi, xizmat rentabelligi va texnologik bog'liqliklar asosida baholash metodologiyalarini ishlab chiqqan.

Aloqa xizmatlari zamonaviy iqtisodiyotning dinamik va o'zgaruvchan qatlamida strategik tayanch sektor sifatida maydonga chiqmoqda. Xizmatlar spektrini diversifikatsiya qilish ehtiyoji nafaqat texnologik rivojlanish talabi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning ham muhim omili sifatida qaralmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston–2030" taraqqiyot strategiyasi doirasida "raqamli iqtisodiyotni chuqurlashtirish" va "xizmatlar eksporti hajmini uch baravar oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo'lib, bu aloqa korxonalarining faoliyatini tubdan transformatsiya qilishni talab etadi.

Shu jihatdan, xizmatlar diversifikatsiyasini baholashning ilmiy usullari — HHI, Cross-Referral ROI, TDI kabi statistik va tahliliy yondashuvlar — telekommunikatsiya kompaniyalarining strategik qarorlar qabul qilish jarayonida samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon amaliyotida Fransiya, Janubiy Koreya, Italiya va Singapur aloqa operatorlari ushbu yondashuvlardan foydalanib, xizmat portfelini transformatsiya qilish, mijozlar sonini oshirish va bozor ulushini mustahkamlashga erishgan. Demak, diversifikatsiyani faqat amalga oshirish emas, balki uni ilmiy asoslangan usullar bilan baholash ham aloqa sohasining barqaror raqamli o'sishida ajralmas mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda aloqa sohasini transformatsiyalash faqat texnologik Xizmatlar diversifikatsiyasi yangilanish jarayoni emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan strategik yo'nalish bo'lib, u bandlik darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining barcha qatlamlari uchun raqamli imkoniyatlarni kengaytirish vositasiga aylanmoqda. "O'zbekiston–2030" strategiyasida belgilanganidek, xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 50 foizdan ortiq darajaga yetkazish rejalashtirilgan. Bu esa, o'z navbatida, aloqa kompaniyalarining xizmatlar portfelini ko'p yo'nalishli va integratsiyalashgan shaklda rivojlantirishini talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur sharoitda diversifikatsiya strategiyasining samaradorligini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar kompaniya boshqaruvini raqamlashtirish, foydalanuvchi tajribasini chuqurlashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamli xizmatlarning diversifikatsiya darajasini aniqlash orqali kompaniyalar bozor ehtiyojlarini oldindan anglab, mijoz segmentatsiyasini aniq belgilaydi va natijada eksportga yo'naltirilgan xizmatlar modelini shakllantiradi. Shu bois diversifikatsiya faqat xizmatlar ko'lamini kengaytirish vositasi sifatida emas, balki uni ilmiy asosda baholash va boshqarish orqali iqtisodiy transformatsiyani ilgari suruvchi muhim strategik mexanizm sifatida qaralishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Amerikalik iqtisodchi Douglas Miller 2006-yilda ilgari surgan Technological Diversity nazariyasida axborot-kommunikatsiya kompaniyalarining xizmatlar diversifikatsiyasini texnologik patentlar orqali baholash konsepsiyasi taklif etilgan¹. Uning ta'kidlashicha, kompaniyalar texnologik innovatsiyalarga asoslangan patent portfellarining tarkibiy xilma-xilligini baholash orqali raqamli xizmatlarning diversifikatsiya darajasini aniqlay oladi. Bunday yondashuv kompaniyaga texnologik ishonchlikni ta'minlash, mahsulot yangiligini oshirish va xizmatlar spektrini kengaytirishda raqobat ustunligini qo'lga kiritish imkonini beradi. Miller bu baholash jarayonida quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya etadi:

$$TDI = \sum \left(\left(\frac{patentcitations_k}{totalcitations} \right) \right) \times patentcount_k,$$

Bu yerda:

TDI — texnologik diversifikatsiya indeksi;

patentcitations_k — k-toifadagi patentga berilgan iqtiboslar soni;

1 Miller D. J. Technological diversity, related diversification, and firm performance // Strategic Management Journal. – 2006. – T. 27. – №. 7. – C. 601-619.



totalcitations — barcha patent iqtiboslarining umumiy soni;
 patentcount_k — k-toifadagi patentlar soni.

Mazkur yondashuv amaliyotda sinovdan o'tgan bo'lib, Fransiya va Italiya MVNO (Mobile Virtual Network Operator) kompaniyalari texnologik diversifikatsiya indeksini 0,3 dan 0,7 gacha oshirishga erishgan. Natijada ularning daromadi 15 foizga ortgan. Ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, texnologik patent portfelining kengayishi kompaniyaga innovatsion xizmatlarni tejamkor ishlab chiqish, bozor talabiga moslashish va foydalanuvchi ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini beradi. Mazkur metodologiya xizmatlar sohasida ilmiy-texnik resurslardan samarali foydalanish orqali diversifikatsiyaga erishish uchun mustahkam nazariy hamda amaliy asos yaratadi.

Chillilik iqtisodchi Agosin tomonidan 2009-yilda ilgari surilgan eksport diversifikatsiyasi nazariyasi asosida, beninlik iqtisodchi Gnganngon 2021-yilda xizmatlar eksportining diversifikatsiya darajasini statistik baholash uchun Herfindahl–Hirschman Index (HHI) formulasi asosida tahliliy yondashuvni taklif etgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, xizmatlar eksportining bir yoki ikki tarmoqda yuqori kontsentratsiyalashuvi iqtisodiy zaiflikni kuchaytiradi, aksincha, turli xizmat turlarining eksportdagi ulushi balanslashgan taqdirda, makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi². Gnganngon xizmatlar eksportidagi konsentratsiya darajasini quyidagi formula yordamida o'lchashni tavsiya etadi:

Bu yerda:

$$HHI = \sum \left(\frac{x_k}{X} \right)^2,$$

x_k — k-turdagi xizmat eksporti hajmi;
 X — umumiy xizmatlar eksporti hajmi.

HHI indeksining qiymati qancha past bo'lsa, diversifikatsiya darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Gnganngonning GMM (Generalized Method of Moments) modeli asosida 131 mamlakatda olib borgan tahlillari shuni ko'rsatadiki, HHI 1 birlikka kamayganida, real iqtisodiy o'sish sur'ati o'rtacha 0,01 foiz punktga oshadi. Ushbu statistik munosabat xizmatlar sektorida diversifikatsiyaning bevosita iqtisodiy o'sish omiliga aylanganini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv amaliyotda, xususan, ASEAN mamlakatlari, Marokash va Kolumbiyada xizmatlar eksportini ko'p tarmoqli shaklda boshqarish siyosatini shakllantirishda qo'llanilgan. Natijada, ushbu davlatlarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari barqarorlashgan. Bu model xizmatlar sektorida diversifikatsiyadan foydalanish samaradorligini aniq, empirik va nazariy asosda o'lchash imkonini beradi.

Harvard Business School tomonidan 2011-yilda ishlab chiqilgan "Cross-Referral ROI" modeli kompaniyalarda diversifikatsiya samaradorligini baholash uchun qo'llaniladigan zamonaviy iqtisodiy yondashuvlardan biri bo'lib, u yangi xizmatlar orqali jalb qilingan mijozlar oqimini tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, raqamli xizmatlarni diversifikatsiya qilish orqali kompaniyalar mavjud mijozlar bazasidan yangi foydalanuvchilarni jalb etish imkoniyatini kengaytiradi va bu jarayon xizmatlar rentabelligini bevosita baholash imkonini beradi³. Buning uchun quyidagi formula taklif etiladi:

Bu yerda:

$$\text{Cross – Referral ROI} = \frac{\text{Referral Count} \times \text{Referral Value}}{\text{Total Marketing Expenditure}},$$

Referral Count — yangi xizmatlar orqali olingan tavsiyalar (referrals) soni;
 Referral Value — bitta tavsiyaning monetar qiymati;
 Total Marketing Expenditure — umumiy marketing xarajatlari.

Ushbu model amaliyotda Italiya sog'liqni saqlash kompaniyasi tomonidan qo'llanilgan bo'lib, natijada referral ko'rsatkichlarida 3,3 foiz kamayish kuzatilgan. Shu bilan birga, kompaniya marketing strategiyasini optimallashtirish va xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish orqali umumiy mijozlar bazasining barqaror o'sishini saqlab qolishga hamda rentabellik darajasini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Bu tajriba Cross-Referral ROI modelining xizmatlar diversifikatsiyasini iqtisodiy jihatdan baholash va marketing resurslarini samarali taqsimlashda yuqori amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

$$\frac{10\,000 \text{ ta referral} \times 200 \text{ AQSh dollari}}{2 \text{ mln AQSh dollari}} = 10\,000$$

Bu yondashuv xizmatlar spektri kengaytirilganida, ushbu kengayish orqali jalb qilinadigan mijozlar oqimi va marketing sarmoyasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniq o'lchash imkonini beradi. Ayniqsa, telekommunikatsiya operatorlari mazkur modeldan analog marketing kampaniyalari natijalarini, xizmatlar orqali kelgan yangi mijozlar soni asosida, baholashda samarali foydalanmoqda. Natijada, xizmatlar diversifikatsiyasi mijozlarni jalb qilish samaradorligini oshiradi hamda kompaniyaning umumiy strategik ustunligini mustahkamlaydi.

2 Gnganngon S. K. Manufacturing exports and services export diversification //The International Trade Journal. – 2021. – T. 35. – №. 3. – C. 221-242.

3 <https://www.hbs.edu/ris/Publication%20Files/10-036.pdf>



Algirlik olim Djamal-Eddine Meddour va uning ilmiy guruhi 2017-yilda telekommunikatsiya sohasida xizmatlar diversifikatsiyasini baholash uchun infratuzilma ulashish (infrastructure sharing) tamoyiliga asoslangan samaradorlik modelini ishlab chiqdi. Ularning fikricha, rivojlanayotgan mamlakatlarda tarmoq infratuzilmasini birgalikda boshqarish orqali xizmatlar portfelini kengaytirish nafaqat texnologik barqarorlikni, balki iqtisodiy tejamkorlikni ham ta'minlaydi⁴. Tadqiqotchilar ushbu iqtisodiy samarani quyidagi formula orqali ifodalaganlar:

$$\text{Efficiency Gain} = \frac{\text{Shared CAPEX} + \text{Shared OPEX}}{\text{Diversified Service}}$$

Bu yerda:

Shared CAPEX — infratuzilmaga birgalikda kiritilgan asosiy kapital xarajatlari;

Shared OPEX — birgalikda boshqarilgan operatsion xarajatlar;

Diversified Service Revenue — xizmatlar diversifikatsiyasi natijasida olingan umumiy daromad.

Ushbu model Hindiston, Indoneziya va Bangladeshda muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan bo'lib, telekommunikatsiya operatorlari umumiy infratuzilmadan foydalanish orqali xarajatlarni 25–30 foizga kamaytirishga erishgan. Shuningdek, ular yangi xizmat turlarini joriy etish jarayonini soddalashtirib, bozor segmentlariga tezroq kirish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Mazkur yondashuv, ayniqsa infratuzilmasi notekis taqsimlangan yoki hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lgan mamlakatlar uchun dolzarb yechim sifatida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu model telekommunikatsiya sektorida hududiy infratuzilmalarni birlashtirish orqali xizmatlar diversifikatsiyasini arzon, tezkor va funksional tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Beninlik iqtisodchi olim S.K. Gnanngnon 2021-yilda xizmatlar eksporti diversifikatsiyasi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi murakkab empirik bog'liqlikni umumlashtirilgan momentlar metodi (GMM) asosida tahlil qilib, zamonaviy makroiqtisodiy modellashirishga innovatsion hissa qo'shdi. Uning tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmatlar sektorida eksport diversifikatsiyasi darajasi mamlakatning yillik iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi, biroq bu ta'sirning intensivligi mamlakatning savdo ochiqligi (trade openness) darajasiga bog'liq. Tadqiqot asosida quyidagi regressiya modeli ishlab chiqilgan:

$$\text{Growth} = \alpha^0 + \alpha^1 \text{Growth}_{t-1} + \alpha^2 \text{HHI} + \alpha^3 \text{Trade Open} + \alpha^4 \cdot \text{Control Variables},$$

Bu yerda:

Growth — iqtisodiy o'sish sur'ati;

HHI — Herfindahl–Hirschman indeksi, ya'ni xizmat eksporti diversifikatsiyasi darajasi;

Trade Open — savdo ochiqligi indeksi;

Control Variables — inflyatsiya, siyosiy barqarorlik, infratuzilma darajasi va boshqa omillar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, savdo ochiqligi past bo'lgan mamlakatlarda (masalan, Gana, Nepal, Gruziya) diversifikatsiya iqtisodiy o'sishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, har 1 birlik HHI kamayishi o'sish sur'atini o'rtacha 0,01 foiz punktga oshirgan. Biroq, savdo ochiqligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda (masalan, Singapur, Chili, Chexiya) esa aksincha, ixtisoslashuv nisbatan yuqori samaradorlik bergan. Ushbu holat iqtisodiy strategiya tanlashda kontekstual yondashuv zarurligini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Mazkur yondashuv O'zbekistonning "2030-yilgacha bo'lgan Taraqqiyot strategiyasi" bilan to'liq uyg'un bo'lib, unda raqamli xizmatlar eksportini kengaytirish, "raqamli infratuzilma zonasini" yaratish va "xalqaro xizmat bozorlariga integratsiya qilish" ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Gnanngnon modeli asosida xizmat eksportini HHI yordamida o'lchash orqali O'zbekiston o'zining eksport strukturasi diversifikatsiyalash orqali iqtisodiy o'sish va global integratsiyani bir vaqtning o'zida ta'minlay oladi. Bu yondashuv raqamli iqtisodiy transformatsiya jarayonida strategik muvozanatni saqlash uchun ilmiy tayanch sifatida xizmat qiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim, iqtisodiyot fanlari doktori Sh.A. Xo'jayevaning 2020-yildagi ilmiy izlanishlarida xizmatlar sektorida diversifikatsiyani baholash bo'yicha muqobil yondashuv — xizmat ko'rsatish faoliyatining kompozit diversifikatsiya koeffitsienti (KDK) ishlab chiqilgan. U o'zining "Hududiy xizmat ko'rsatish tizimining diversifikatsion imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari" nomli ilmiy ishida O'zbekistonning iqtisodiy hududlarida telekommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar va transport-logistika sektorlarining o'zaro bog'liqligini chuqur tahlil qilgan. Olimaning fikricha, xizmatlarning vertikal va gorizontal turdagi integratsiyasi iqtisodiy o'sishdagi hududiy tafovutlarni kamaytiradi va xizmatlar eksportining barqarorligini ta'minlaydi. U quyidagi formulani taklif etadi:

4 Daldoul Y., Meddour D. E., Ksentini A. IEEE 802.11 ac: Effect of channel bonding on spectrum utilization in dense environments //2017 IEEE International Conference on Communications (ICC). – IEEE, 2017. – C. 1-6.



$$KDK = \sqrt{\left[\frac{\sum Ri^2}{N} \right]} - D,^5$$

Ri – i-hudud bo'yicha xizmat turi ulushi, N – xizmat turlari soni, D – xizmatlar o'rtasidagi o'zaro texnologik bog'liqlik darajasi ($0 \leq D \leq 1$).

Ushbu model Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi hududlarida qo'llanilib, diversifikatsiya ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hududlarda xizmatlar eksportining o'sish sur'ati o'rtacha 12–14 foizni tashkil etgan. Ayniqsa, telekommunikatsiya va moliyaviy xizmatlar o'rtasidagi texnologik bog'liqlik yuqori bo'lgan holatlarda xarajatlar 18 foizgacha qisqargan. Bu ilmiy yondashuv O'zbekiston sharoitida xizmatlar sektorini hududlararo strategik boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat shuki, mazkur baholash modeli O'zbekiston–2030 strategiyasida belgilangan "Hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlash", "Raqamli xizmatlar eksportini oshirish" va "Telekommunikatsiya infratuzilmasini integratsiyalash" kabi ustuvor yo'nalishlarga to'liq mos keladi. Mahalliy olim tomonidan ishlab chiqilgan ushbu innovatsion yondashuv mamlakatda xizmatlar tarmog'i transformatsiyasini ilmiy asosda rejalashtirish va diversifikatsiyani boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, bu formula yordamida nafaqat sektorlar kesimida, balki geografik hududlar bo'yicha ham xizmat samaradorligini aniq baholash mumkin.

Xizmatlar sohasidagi diversifikatsiya bugungi kunda MDH davlatlari iqtisodchilarining ham e'tibor markazida bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar nafaqat iqtisodiy natijalarga, balki insonlar hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan strategik mexanizmlarni taklif qilmoqda. Masalan, rossiyalik olim Aleksey Petrov xizmatlar foydalanuvchilari o'rtasidagi segmentatsiya orqali raqamli xizmatlardan olinadigan daromad va ularning qamrov doirasini baholash bo'yicha ilg'or metodologik yondashuv ishlab chiqqan. Qirg'izistonlik tadqiqotchi Saykal Jumaeva esa mehnat resurslarining samaradorligini xizmatlar eksportidagi diversifikatsiya darajasi bilan bog'lab, inson kapitalining qiymatini ilmiy asosda o'lchash usulini taklif etgan. Ushbu yondashuv xizmatlar sektorida inson salohiyati va ijtimoiy inklyuziya tamoyillariga asoslangan iqtisodiy rejalashtirishning muhimligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Yuqoridagi baholash usullarini o'rganish jarayonida mamlakatimizda mavjud aloqa korxonalarining xizmatlarini diversifikatsiya qilishning yuqori ahamiyatga egaligi aniqlangan. Shu bilan birga, ushbu korxonalarning diversifikatsion faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha maxsus usul ishlab chiqilmagani sababli, uni ishlab chiqish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval. Integrallashgan ko'p mezonli diversifikatsiya samaradorligini baholashning strategik-analitik metodi⁶

Baholash nomi	Formulasi	Takomillashtirilgan formulasi	Formuladagi belgilarning tavsifi	Izohi	Takomillashtirilgan izohi
Diversifikatsiya darajasi indeksi (DDI) ⁷	$DDI = 1 - \sum (Pi)^2$	$DDI_{mod} = 1 - \sum (wi \times Pi)^2$	Pi -xizmat i daromaddagi ulushi; wi - xizmatning strategik og'irlik koeffitsienti	Xizmatlar portfeli qay darajada teng taqsimlanganini o'lchaydi.	Og'irlik koeffitsiyentlari orqali har bir xizmatning strategik ahamiyati hisobga olinadi.
Xizmatlardan daromad samaradorligi (XDS) ⁸	$XDS = \frac{TR}{CAPEX + OPEX + DIV}$	$XDS_{mod} = \frac{TR - TAX}{CAPEX + OPEX + DIV}$	TR- jami daromad; TAX - soliq; DIV -diversifikatsiya xarajatlari	Xizmatlar orqali olingan daromadning umumiy xarajatlarga nisbatan samaradorligini aniqlaydi.	Soliqlarni chegirib, real daromad asosida baholash aniqlikni oshiradi.

5 Xo'jayeva Sh.A. "Hududlararo xizmatlar integratsiyasi va strategik diversifikatsiya imkoniyatlari", TDIU ilmiy jurnali, 2020-yil, №3

6 Muallif ishlanmasi

7 https://en.wikipedia.org/wiki/Herfindahl_index

8 <https://ieeexplore.ieee.org/document/935078>



Bozor diversifikatsiyasi samaradorligi (BDS) ⁹	$BDS = (\Delta MS / \Delta T \times (NPS / 100))$	$BDS_{mod} = \left(\left(\frac{\Delta MS}{\Delta T} \right) \times \left(\frac{NPS}{100} \right) \right) + CRM_{impact}$	AMS - bozor ulushidagi o'zgarish; ΔT - vaqt; NPS - mijoz tavsiya darajasi; CRM - impact -mijoz bilan ishlash tizimining ta'siri	Diversifikatsiyaning bozorga real ta'siri va mijozlar fikrini baholaydi.	CRM tizimlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan samara ham inobatga olinadi.
Kompozit diversifikatsiya samaradorligi indeksi (KDSI) ¹⁰	$KDSI_{mod} = (\alpha \times DDI_{mod}) + (\beta \times XDS_{mod}) + (\gamma \times BDS_{mod})$		α (0,25), β (0,15), γ (0,1)-vazn koeffitsientlari; har biri 0-1 orasida, yig'indisi =1	Yakuniy kompleks ko'rsatkich sifatida barcha indeksni umumlashtiradi.	Takomillashgan indekslar asosida ko'p o'lchovli baholashni ta'minlaydi.

Diversifikatsiya darajasi indeksi (DDI) xizmatlar portfelining ichki tarkibiy muvozanatini baholovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. DDI yordamida telekommunikatsiya kompaniyasi tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar (mobil aloqa, internet, IPTV, korporativ xizmatlar va boshqalar) bo'yicha daromadlarning qay darajada teng taqsimlangani aniqlanadi. Takomillashtirilgan DDI_mod versiyasida xizmatlarning strategik og'irlik koeffitsienti (wi) kiritilishi orqali har bir xizmat turining kompaniya umumiy strategiyasidagi o'rni va afzalligi hisobga olinadi. Bu yondashuv aloqa kompaniyasiga moliyaviy daromadi past bo'lgan, biroq ijtimoiy yoki mintaqaviy jihatdan muhim xizmatlarni ham aniq baholash imkonini beradi.

Xizmatlardan daromad samaradorligi (XDS) ko'rsatkichi telekommunikatsiya kompaniyasining umumiy xarajatlari fonida xizmatlar orqali qancha daromad olganini baholaydi. Dastlabki formulada daromad to'liq hisobga olinadi, biroq XDS_mod modelida soliqlarni chegirib tashlash orqali sof moliyaviy samaradorlik aniqlashtiriladi. Bu ko'rsatkich, ayniqsa, diversifikatsiya natijasida kapital xarajatlar (CAPEX), operatsion xarajatlar (OPEX) va bevosita diversifikatsiyaga yo'naltirilgan sarmoyalarni qanday daromadga aylantirish mumkinligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Telekommunikatsiya sohasida yangi xizmatlarni joriy etish (masalan, "smart home" texnologiyalari yoki bulutli xizmatlar) katta moliyaviy sarmoya talab qilganligi sababli, ushbu ko'rsatkich resurslarni samarali taqsimlashda ishonchli moliyaviy indikator vazifasini bajaradi.

Bozor diversifikatsiyasi samaradorligi (BDS) telekommunikatsiya kompaniyasining yangi xizmatlar orqali bozor ulushini qanday oshirganini aniqlash imkonini beradi. Ushbu ko'rsatkichda bozor ulushidagi o'zgarish (ΔMS), vaqt faktori (ΔT) hamda mijozlar tomonidan xizmatni tavsiya qilish darajasi (NPS) hisobga olinadi, bu esa bevosita iste'molchilarning qoniqish darajasini aks ettiradi. BDS_mod formulasi orqali CRM (Customer Relationship Management) tizimining ta'siri ham baholanishi natijasida mijozlar bilan aloqalarning uzluksizligi va xizmat sifati ham inobatga olinadi. Telekom sohasida ko'plab xizmatlar (masalan, to'lovli kontent, bulutli xizmatlar, mobil moliyaviy xizmatlar) bozor ulushining qisqa muddatda sezilarli o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, BDS diversifikatsiyaning marketing samarasi va mijozlar bazasiga ta'sirini tahlil qilishda keng qamrovli metrikani taqdim etadi.

Kompozit diversifikatsiya samaradorligi indeksi (KDSI_mod) yuqorida keltirilgan barcha alohida indeksni yagona kompleks ko'rsatkich sifatida birlashtirib, xizmatlar diversifikatsiyasining umumiy strategik samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu indeks og'irlik koeffitsientlari (α , β , γ) orqali turli yo'nalishlarning ta'sir kuchini differensial tarzda hisobga oladi. Masalan, DDI_mod xizmatlar portfeli muvozanatini, XDS_mod moliyaviy samaradorlikni, BDS_mod esa bozor reaksiyasini baholaydi. Ushbu kombinatsiya strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq va ko'p mezonli yondashuvni ta'minlaydi. KDSI_mod indikatorlari yordamida kompaniya diversifikatsiya strategiyasining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarini aniqlaydi, xizmatlar segmentini optimallashtiradi va yangi istiqbolli yo'nalishlarni belgilaydi. Bu indeks rejalashtirish, monitoring va samaradorlikni baholashda integrallashgan nazorat vositasi sifatida xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu integrallashgan baholash modeli aloqa xizmatlarini diversifikatsiyalash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlar – masalan, xizmatlar portfeli nomutanosibligi, investitsiya samaradorligini oshirish ehtiyoji, mijozlar bazasining segmentatsiyasi – ni aniqlash va ularni samarali boshqarish imkonini beradi. Har bir ko'rsatkich strategik tahlil vositasi sifatida nafaqat mavjud holatni baholaydi, balki istiqboldagi

9 <https://www.bain.com/insights/introducing-the-net-promoter-system-loyalty-insights/>

10 Muallif ishlanmasi



risk va imkoniyatlarni ham aniqlaydi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida kompaniya diversifikatsiya siyosatini takomillashtirishi, ustuvor xizmat yo'nalishlarini belgilashi va resurslarni strategik qayta taqsimlashi mumkin. Natijada, telekommunikatsiya kompaniyalari raqamli transformatsiya va raqobat muhitiga moslashishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikka hamda foydalanuvchi ehtiyojlarini barqaror qondirish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ushbu baholash metodikasi raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar diversifikatsiyasining muvaffaqiyatini o'lchashda samarali, tizimli va barqaror yondashuvni taklif etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, aloqa sohasida xizmatlar diversifikatsiyasini faqat texnologik yangilanish jarayoni sifatida emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasini jadallashtiruvchi, uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash zarur. Zamonaviy global amaliyotlar shuni isbotlaydiki, xizmatlar turini kengaytirish va ularni diversifikatsiyalash nafaqat kompaniya daromadlarini barqarorlashtiradi, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi, yangi ish o'rinlarini yaratadi hamda mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi.

HHI (Herfindahl–Hirschman indeksi) va TDI (Tarmoq Diversifikatsiya Indeksi) kabi xalqaro indekslar xizmatlar portfeli muvozanatini va ixtisoslashuv darajasini aniqlashda bevosita iqtisodiy o'sish sur'atlari va foydalanuvchi bazasining kengayishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning muntazam monitoringi aloqa korxonalariga o'z strategiyalarini tezkor ravishda moslashtirish imkonini beradi.

Mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan KDSI (Kompozit Diversifikatsiya Samaradorligi Indeksi), DDI (Diversifikatsiya Darajasi Indeksi), XDS (Xizmatlardan Daromad Samaradorligi) va BDS (Bozor Diversifikatsiyasi Samaradorligi) kabi integrallashgan modellar O'zbekistonda xizmatlar sektorini boshqarishning yangi ilmiy bosqichini boshlab berdi. Ushbu modellar turli ko'rsatkichlarni yagona tizimda birlashtirib, kompaniyalarga diversifikatsiya jarayonining iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy jihatlarini kompleks baholash imkonini beradi.

Ayniqsa, KDSI modeli kompaniyalarga o'z diversifikatsiya strategiyasini ko'p o'lchovli ko'rsatkichlar asosida rejalashtirish, xizmat portfelidagi nomutanosibliklarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va yangi istiqbolli yo'nalishlarni belgilash imkonini yaratadi. Bu yondashuv nafaqat mavjud xizmatlar samaradorligini oshirishga, balki innovatsion xizmat turlarini tezkor joriy etish orqali bozor ulushini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, diversifikatsiya jarayonini milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyalari, jumladan, "O'zbekiston–2030" strategiyasidagi raqamli iqtisodiyot, hududlararo iqtisodiy tenglik va xalqaro xizmatlar eksportini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlashtirish aloqa sektorining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning global raqobatbardoshlik indeksidagi o'rnini mustahkamlashga, raqamli xizmatlar eksportidan tushadigan daromadlarni ko'paytirishga va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Miller, D. Technological Diversity Theory. – 2006.
2. Gnanngnon, S.K. Service Export Diversification and Economic Growth. – 2021.
3. Harvard Business School. Cross-Referral ROI Model. – 2011.
4. Meddour, D.-E. va boshq. Infrastructure Sharing in Telecom. – 2017.
5. Mamatqulov, B.B. Xizmatlar tizimini baholash modeli. – 2018.
6. Nurmatova, G.S. Servis eksporti rentabelligi koeffitsienti. – 2019.
7. Sattorov, Z.A. Foydalanuvchi-modulli indeks. – 2021.
8. Xo'jayeva, Sh.A. Kompozit diversifikatsiya koeffitsienti. – 2020.
9. Petrov, A. Digital Service Revenue Analysis. Rossiya, – 2019.
10. Jumaeva, S. Xizmatlar va mehnat samaradorligi. Qirg'iziston, – 2020.
11. Suleimenov, A. Export Intensity Index. Qozog'iston, – 2022.
12. Karpova, E. Xizmat markazlari xarajat tahlili. Belarus, – 2018.
13. Nazarov, D. Hududlararo xizmat tarmog'i modeli. Tojikiston, – 2021.
14. Tursunova, M.T. Prospects for the Development of the Digital Economy in Uzbekistan // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – T. 2. – № 6. – B. 763–766.
15. Takhirovna, T.M., Kanilevna, K.D. Network Marketing and Its Impact on Business Development // Conferencea. – 2022. – B. 39–45.
16. Турсунова, М., Мамадалиев, М. (2025). Этапы развития электронной коммерции в современных ИТ предприятиях Узбекистана // Interpretation and Researches. – 2025. – Т. 5(51). – <https://inlibrary.uz/index.php/international-scientific/article/view/80712>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>